

фаолиятларни ривожлантиришга хизмат қилади. Бунинг натижасида, тадбиркорлар орасида ҳам биродарлик ва ўзаро ёрдам йўналишлари ривожланади. Шундай қилиб, Ислом молиясининг асосий мақсади одамлар орасида мувозанатни сақлаш ва ижтимоий тараққиётга ёрдам беришдир.

5. Этик тадбиркорлик. Ислом молияси иқтисодий фаолиятни этик меъёрлар ва шаръий қоидаларга асосланиб амалга оширишга даъват қилади. Исломда тадбиркорлар ва уларнинг ҳамкорлари ўртасидаги муносабатлар ўзаро ишончга асосланган бўлиши керак. Тадбиркорликнинг ҳар бир босқичида адолат, ҳалоллик ва шаффофлик принципларига риоя қилиш талаб этилади. Бу эса жамиятда ишонч ва ишбилармонлик муҳитини яхшилашга ёрдам беради. Шунингдек, тадбиркорлик соҳасидаги муваффақиятни оширишга ёрдам беради. Қолаверса, тадбиркорлар ўз молиявий ресурсларини фақат шахсий манфаатларига эмас, балки жамиятга фойда келтиришга қаратган ҳолда сарф қилишлари талаб этилади. Бу эса ўз навбатида, иқтисодиётнинг умумий ривожланишини ва ижтимоий барқарорликни таъминлайди.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар томонлама ривожланган, барқарор ва адолатли иқтисодий тизимни яратишда Ислом молиясининг аҳамияти катта. Тадбиркорлар учун имкониятлар кенгайиб, уларнинг иш фаолиятининг барқарорлиги таъминланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Арипов О.А. Кичик бизнес ва тадбиркорлик. Дарслик. – Наманган. “Машлаб” нашриёти. 2024. 75-77 бетлар.

2. Муфти Муҳаммад Тақий Усманий. Ислом молиясига кириш. – Т.: “Азон китоблари”, 2023. 56-58 бетлар.

3. Тимоти Ж. Уинтер (Абдулҳаким Мурод). XXI асрда Ислом (Постмодерн дунёда қиблани топиш). –Т.: “Шарқ” нашриёт-матбааакциядорлик компанияси. 2005. – 363 б.

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLİYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Sharapova Mashxura

*TDIU “Moliya va moliyaviy texnologiyalar”
kafedrasi dotsenti, PhD*

Islomiy moliyalashtirish ma'naviy-axloqiy tamoyillarga asoslangan ijtimoiy yo'nalish bo'lib, insonlarning farovonligini ularning hayoti, tafakkuri, qadr-qimmatini va mulkini himoya qilish orqali ta'minlashga qaratilgan. Bu yo'nalish iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi sifatida ijtimoiy adolatni ta'minlashni ko'zda tutadi. Bu maqsad iqtisodiyotni rivojlantirish va xo'jalik faoliyatini yaxshilash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida 2022-yil 20-aprelda "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, nobank kredit tashkilotlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: mikromoliya tashkilotlari (mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar), lombardlar (shaxsiy iste'mol uchun ko'chma mol-mulkni garovga qo'yib, qisqa muddatli mikroqarzlar beruvchi tashkilotlar) va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari (ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni jalb qiluvchi tashkilotlar).

Ushbu tashkilotlarga mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshirish, to'lov agenti yoki banklarning agenti sifatida ishlash, maslahat va axborot xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlariga mikrocreditlar, lizing, kafolatlar, faktoring xizmatlari va islomiy moliyalashtirish xizmatlarini taqdim etish huquqi berilgan[1].

Qonunda "Islomiy moliyalashtirish xizmatlari" islomiy moliyalashtirish standartlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan tartibda ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar sifatida ta'riflangan. Mikromoliya tashkilotlari tadbirkorlarga 300 million so'mgacha kreditlar, lizing, kafolatlar, faktoring xizmatlari va islomiy moliyalashtirish xizmatlarini taqdim etishi mumkin. Lombardlar esa garov asosida 1 yilgacha muddatli, 50 million so'mgacha mikroqarzlar berish huquqiga ega. Shuningdek, qonunga ko'ra, nobank kredit tashkilotlari ishlab chiqarish, sug'urta, savdo faoliyatini amalga oshirishga va omonatlarni (depozitlarni) jalb etishga haqli emas.

2024-yil oxirida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Islomiy moliyaviy xizmatlar Kengashiga a'zo bo'ldi. Kengash 2002 yilda tashkil etilgan bo'lib, bosh ofisi Kuala-Lumpurda (Malayziya) joylashgan. Bugungi kunda Kengashning 188 a'zosi, shu jumladan, 81 ta tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar, 10 ta xalqaro hukumatlararo tashkilot va 97 ta bozor ishtirokchilari hisoblanadi. Shuningdek, Kengashga Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston moliyaviy regulyatorlari ham a'zo hisoblanadi[2].

Islomiy moliyaviy xizmatlar Kengashi islomiy moliya institutlarini tartibga solish, nazorat qilish, korporativ boshqaruv va risk-menejment tizimlarini joriy etish, kadrlar tayyorlash va tadqiqotlar olib borish bilan shug'ullanadi. O'zbekistonning ushbu tashkilotga a'zoligi xalqaro tajribani o'rganish va mamlakatda islomiy moliya institutlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Mazkur tashkilotga a'zolik boshqa mamlakatlar tajribasini o'rganish va mamlakatimizda islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish sohasida ilg'or xalqaro tajribani joriy etish imkonini beradi.

Jahon moliya tizimida islom moliyasi tez sur'atlarda o'sib borayotganligiga qaramasdan, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlarida islom moliyasining rivojlantirishda keng imkoniyatlar bo'lishiga qaramasdan MDH mamlakatlarida islom moliyasi boshqa davlatlarga qaraganda sekinroq rivojlanmoqda. MDH davlatlari ushbu sohani rivojlantirishga ahamiyat

qaratsalar, kelajakdagi besh yil ichida islom moliya xizmatlari bozori sezilarli darajada o'sadi[3].

O'zbekistonda islomiy moliyaga qiziqish ortib bormoqda. Mamlakat aholisining 93 foizi musulmon bo'lib, bu islomiy moliyani rivojlantirish uchun muhim omil hisoblanadi. 2020 yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi loyihasi doirasida aholi, biznes vakillari va tijorat banklari o'rtasida o'tkazgan so'rovnoma davomida 27 ta tijorat banki, 2235 nafar tadbirkor hamda 4938 jismoniy shaxs ishtirok etgan. Ushbu so'rovnoma natijalariga ko'ra biznes vakillarining 38%, hamda jismoniy shaxslarning 55% diniy qarashlari sababli an'anaviy kreditlardan foydalanmasliklarini aytishgan. 61% biznes vakillari va 75% jismoniy shaxslar agar islom bank-moliya muassasalari O'zbekistonda faoliyat boshlashsa, o'z moliyaviy amaliyotlarini islom moliya muassasalarida olib borish istagini bildirishgan. 47% biznes vakillari va 55% jismoniy shaxs islom banklari xizmat haqi yuqori bo'lsa ham ular bilan ishlayverishlarini aytishgan, chunki bu ularning diniy dunyoqarashlari bilan bog'liq ekanligini aytib o'tishgan[3].

O'zbekistonda islom moliyasi vosita va mahsulotlarini tatbiq qilish uchun birinchi navbatda tegishli qonunlar qabul qilish va lozim bo'lgan hollarda amaldagi ba'zi qonunlar va qonunosti hujjatlarini islom moliyasi vosita va mahsulotlarini tatbiq qilishga moslashtirishdir. Bu ishni amalga oshirmasdan turib islom moliyasini rivojlantirishni iloji yo'q.

O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirish uchun qonuniy bazani yaratish va mavjud qonunlarni moslashtirish zarur. Hozirgi kunda mamlakatda 36 ta tijorat banki faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan faqat 6 tasi ("Ipak yo'li" banki, "Xamkorbank", "Alokabank", "Trastbank", "Agrobank", "Mikrokreditbank")da islomiy moliyalashtirish xizmatlarini taklif qiladi. Islomiy darchalar orqali muomalalarning asosiy prinsiplari – riboning (foizning) mavjud bo'lmasligi, halol mol muomalalari va ijtimoiy adolatni ta'minlashdir. Islomiy moliya darchalarining ochilishi nafaqat talabni qondirishga, balki soha mutaxassislarini tayyorlashga ham yordam beradi.

Islomiy moliya vositalarini joriy etish investitsiya muhitini yaxshilash, moliya tarmog'ini kengaytirish va yangi sarmoyalarni jalb qilish imkoniyatini beradi. Bu esa O'zbekiston bank tizimining kichik va o'rta biznesning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishda samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda islomiy moliyani rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shadi. Buning uchun aholi va tadbirkorlarning islomiy moliyaviy xizmatlar haqida bilimini oshirish, huquqiy bazani takomillashtirish va targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-765-son qonuni, 20.04. 2022 y.

2. <https://cbu.uz> - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sayti

3. Шарапова, М. (2023). ИСЛОМ МОЛИЯСИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН МОЛИЯ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 407-409.

4. Imamnazarov J. O'zbekistonda islom bank-moliya tizimini tatbiq etishning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy ahamiyati. <https://islommoliyasi.uz>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLİYAVIY RISKLARNI BAHOLASHNING EKONOMETRIK JIHATLARI

M.X.Abdullayeva

*TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar"
kafedrası katta o'qituvchisi*

So'nggi yigirma yil ichida jahon moliya bozorlari to'rtta asosiy yo'nalishda taraqqiy etganini qayd etish mumkin: globallashuv, funksional integratsiya, moliyaviy texnologiyalar va innovatsiyalar hamda internet texnologiyalarining tatbiq etilishi. Ushbu tendensiyalar moliya bozorlarining samaradorligini oshirish barobarida moliyaviy mahsulotlar hamda xizmatlar assortimentini sezilarli darajada kengaytirib, ularni barcha turdagi investorlar uchun yanada qulay va ommabop qildi. Shu bilan birga, ular aniqlanishi va cheklanishi kerak bo'lgan yangi risklarni vujudga keltirdi. Qimmatli qog'ozlarga investitsiya qilishda risk turlari va uning miqdoriy bahosini aniqlash alohida o'rin tutadi, bu esa investorga o'z imtiyozlarini "risk-daromadlilik" ko'rsatkichlariga nisbatan baholash imkonini beradi. Qarorlar qabul qilish nazariyasiga ko'ra, risk va noaniqlik boshqarilmaydigan o'zgaruvchilarning ehtimollik xususiyatlarining mavjudligi bilan belgilanadigan ma'lumotni aniqlash usulida farqlanadi. Riskli vaziyat voqea sodir bo'lishining ma'lum ehtimoli bilan tavsiflanadi, to'liq noaniqlik holatida esa ehtimollik xususiyatlari mavjud emas. Shu ma'noda risk, ehtimollik kategoriyasi sifatida, qisman noaniqlik o'lchovidir. Xalqaro amaliyotda moliyaviy risklarni statistik baholashda turli yondashuvlardan foydalanadigan ikkita asosiy tendensiya mavjud:

1. An'anaviy yondashuv, risk mezonlari tavsifining umumiy o'zgaruvchanligini (tebranuvchanligini) baholaydi – tebranuvchanlik nuqtalari; dispersiya va standart chetlanish; assimetriya koeffitsiyenti; variatsiya koeffitsiyenti, eksess; beta koeffitsiyenti. 2008-yildagi inqirozdan keyin bozor risklarini aniqlash va baholash muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Ushbu davr talabiga munosib iqtisodchi olimlar tomonidan qator statistik usullar va yangi miqdoriy baholash usullari tadqiq qilindi. Iqtisodchi olimlar Dimitrios Bisias, Mark Flood, Andrew W. Lo, Stavros Valavanis tomonidan tadqiq qilingan «A Survey of Systemic Risk Analytics» nomli asarda tizimli riskni turli tomondan miqdoriy baholashning 31 ta uslubi to'g'risida sharh berilgan [1].

2. Zarar bilan yakunlanishi mumkin bo'lgan faoliyat natijalarni tahlil